



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi filialini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 18-martdagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasining filiallarini tashkil etish to‘g‘risida” 82-sonli buyrug‘iga ko‘ra joriy yilda Buxoro, Namangan va Samarqand viloyatlari Bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasining yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan filiallarini tashkil etish belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 05-11/17759-sonli xati bilan Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi “Hostel” binosi negizida (keyingi o‘rinlarda – tibbiyot muassasasi) “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasining ambulator davolanayotgan bolalar uchun filialini tashkil etish taklifi bildirilganligi;

“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi filiallarini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishchi guruhning 2024-yil 15-avgustdagi 3-son bayoni bilan 2024-yilda tibbiyot muassasasida “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasining ambulator davolanayotgan bolalar uchun filialini (keyingi o‘rinlarda – Ambulator filial) tashkil etish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024-yil 17-avgustdagi 01-11/4818-sonli xati bilan tibbiyot muassasasida filialni ochish uchun xonalar to‘liq qayta ta’mirlanganligi va foydalanish uchun topshirishga tayyor holatga keltirilganligi inobatga olinsin.

2. “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasining yangi tashkil etilayotgan Ambulator filialiga tovar-moddiy boyliklar homiylik asosida xarid qilinayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. “Mehrli maktab” (N.Alimova)ga:

tibbiyot muassasasida Ambulator filial tashkil etish to'g'risida tegishli buyruq qabul qilish;

homiylilik asosida xarid qilinayotgan tovar – moddiy boyliklarini belgilangan tartibda davlat ta'lim muassasasi balansiga qabul qilish;

Inklyuziv ta'lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (R.To'rayev) bilan birgalikda filial faoliyatini tashkil etish uchun psixolog, pedagoglar, tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisini ishga qabul qilish;

Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) bilan birgalikda "Mehrli maktab" shtatlar jadvaliga o'zgartirish kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (N.Husanbayeva) Ambulator filial faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda har tomonlama ko'maklashsin.

5. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda tegishli tarkibiy bo'linmalar, tasarrufdagi tashkilotlar va muassasalar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil " 21 " -avgust,
270-son



X.Umarova